

QADIMGI TURKIY LUG‘ATLARDA SIFAT SO‘Z TURKUMIGA OID SO‘ZLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Abdullayeva Shaxnoza

TerDU, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Devoni lug‘otit turk” va “At-tuhfat uz-zakiyatu fil lug‘otit turkiyya” asarlarida qo‘llangan sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar lingvistik tahlil asosida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Sifat so‘z turkumi, etimologiya, leksik-semantik, fonetik-fonologik tahlil, devoni lug‘otit turk, at-tuhfat uz-zakiyatu fil lug‘otit turkiya, qiyoslash-chog‘ishtirish metodi.

Barchaga ma’lumki, sifat so‘z turkumi predmetning belgisini bildirib, qanday, qanaqa, qaysi kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi. Boshqa so‘z turkumlari ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg‘in belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, *gul - qizil* deganda turg‘un belgi, *gul qizardi* deganda esa o‘zgaruvchi belgi namoyon bo‘lgan. Belgi tushunchasi o‘z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, maza kabini qamrab oladi. Belgining xususiyatiga ko‘ra sifat ikkiga bo‘linadi: asliy sifatlar va nisbiy sifatlar. Darslik va qo‘llanmalarda sifatning 9 ta LMG (lug‘aviy ma’noviy guruh) si mavjud: xususiyat bildiruvchi sifat, holat bildiruvchi sifat, shakl bildiruvchi sifat, rang-tus bildiruvchi sifat, maza-ta’ m bildiruvchi sifat, hid bildiruvchi sifat, o‘lchov bildiruvchi sifat, o‘rin bildiruvchi sifat, payt bildiruvchi sifat. Bu sifat so‘z turkumining bugungi kundagi o‘rganilishi. Eng qadimgi filologik asarlardan biri “Devoni lug‘otit turk” (keyingi o‘rinlarda MK shaklida berilgan) da esa hozirgi kundagi tilshunoslikdan ancha katta farq qilishi yaqqol namoyon bo‘lgan. Unda sifat so‘z turkumi alohida emas balki umumiy holda ismlar nomi ostida qo‘llaniladi. Faqat so‘z turkumlari bilan farqlanibgina qolmay XI asr til faktlarini hozirgi tilga nunosabatini aniqlash fonetika, leksika, morfologiya va grammatika sohalarida maxsus qiyosiy ish olib borishni talab qiladigan benihoya katta va murakkab masaladir. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, u davr leksikasi hozirgi o‘zbek tili leksikasiga asos bo‘lgan. Devondagi so‘zlarning bir qismi til taraqqiyoti qonunlariga muvofiq arxaik holga tushgan bo‘lsa ham, asosiy qismi turli hollarda yoki butunlay va yoki ba’zi o‘zgarishlar bilan bizgacha yetib kelgan. Bu asardan tashqari “At-tuhfat uz-zakiyatu fil lug‘otit turkiya” (keyingi o‘rinlarda at-tuhfat shaklida berilgan) asarida ham shunday farqlar kuzatiladi.

Ushbu ikki asarda sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar topildi va Mk hamda at-tuhfat asarlaridagi so‘zlar o‘zaro farqlari o‘xshash jihatlari qiyoslash-chog‘ishtirish metodi

orqali o'rganildi. Bundan tashqari yig'ilgan so'zliklarning bugungi kundagi qo'llanilishi bilan ham solishtirildi va lingvistik tahlil qilindi. Endilikda ularni asoslab beramiz. Leksik-semantik jihatdan tahlil qilinganda MK va at-tuhfat asarlarida bir xil ma'nodagi so'zlar boshqa shakldagi so'z bilan qo'llanishidagi farqlar topildi. Masalan, MK da eski-eski so'zi at-tuhfatda esa o'prak-eski shaklida ishlatilgan. Qolgan misollar jadval ko'rinishida berildi.

Tarjimasi	Devoni lug'otit turk	At-tuhfat uz-zakiyatu fil lug'otit turkiya
arzon	ујуз	ушуз
botir	алп	зехла
cho'loq	ахсак	шолок
mahkam, pishiq	берк	ба :рк
nuqsonli	ексук	шавли
Xiylagar, aldamchi	отрук	йаланчи
Erinchoq, yalqov	ермагө	йалков
Bo'ydoq	еринан	казак башли
Qo'rqoq	чанач	коркак
Befahm	ендик	мун
Xushyor	узуг	айик

Fonetik-fonologik jihatdan tahlil qilganda bugungi kundagi so'zliklar bilan faqat tovush orqali farqlangan so'zlar ham aniqlandi. Masalan, at-tuhfatdagi so'zliklarda йанғи-yangi, қаранғу-qorong'u, исси-issiq, қорқақ-qo'rqoq, са:мил-semiz, йавуз-yovuz, таза-toza, сақав-soqov, улу-ulug' kabilarni keltirishimiz mumkin. MK da esa аруқ-oriq, айқ-оқ, азғир-ауг'ir, сариф-sariq, ачиф-achchiq, ол-хо'l, ағир-ог'ir, ачук-ochiq kabi so'zlarni misol sifatida keltirildi. Bu so'zlar tilning taraqqiyoti, turli tarixiy bosqichlar natijasida fonetik o'zgarishga uchragan.

Lug'atlarda hozirgi kunga kelib umuman boshqacha shaklda qo'llaniladigan va qanday bo'lsa shundayligicha yetib kelgan so'zlar ham anchagina. Masalan, hozirgi kundagi *ahmoq*, *befahm* so'zlari "Devonu lug'otit turk" asarida berilishicha *endik* deya nomlangan, *tirishqoq* so'zi *erik*, baland-aziz, yuvosh, nozik, zarif-alchaq, yarador-balig', tajang, tashvishli-bushaq, uyatsiz, yuzsiz-essiz, g'ofil- usayuq, saxiy-aqi, uyquchi-uziq, qo'tir-uzuz, o'nqir-cho'nqir-эн kabi qo'llangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davr alamashinishi natijasida lug'atlar tarkibidagi sifat so'z turkumiga oid so'zlar fonetik, leksik, va grammatik o'zgarishlarga uchraydi. Natijada eski so'zlar iste'moldan chiqib ketadi, uning o'rniga esa yangilari keladi. Ammo ushbu eski iste'moldan chiqqan so'zlar hozirgi kundagi lug'atlar uchun tayanch, poydevor vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963.
2. Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova. M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma – T., "Fan va texnologiya", 2009.
4. Normatova S. Leksikografiya asoslari. Toshkent, 2020.